



UDK: 28-741-9:930.2

*Shokir SHOYKATOV,*

*Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti katta o'qituvchisi*

*E-mail: shokirshoykatogli1976@gmail.com*

*USAT dotsenti, PhD B.Muxtarov taqrizi asosida*

#### A DESCRIPTION OF THE SPIRITUAL AND MORAL ISSUES OF MATORIDISM IN ABUL-YUSR PAZDAVI'S WORK "USUL AD-DIN"

Annotation

The article presents the foundations of belief in the Maturidi doctrine of Abul-Yusr Pazdavi's work "Usul ad-Din", their content and essence, the interpretations of erroneous movements, and the contemporary significance of the scientific refutations given to them.

**Key words:** Pazdavi, Maturidi, Ash'ari, doctrine, foundations of belief, moral issues.

#### ОПИСАНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ МАТОРИДИЗМА В СОЧИНЕНИИ АБУЛ-ЮСРА ПАЗДАВИ «УСУЛ АД-ДИН»

Аннотация

В статье рассматриваются основы вероучения матуридитов в сочинении Абул-Юсра Паздави «Усул ад-Дин», их содержание и сущность, интерпретации ошибочных течений и современное значение данных им научных опровержений.

**Ключевые слова:** Паздави, Матуриди, ашариты, учение, основы вероучения, нравственные проблемы.

#### ABUL YUSR PAZDAVIYNING "USUL AD-DIN" ASARIDA MOTURIDIYLIKNING MA'NAVY-AXLOQIY MASALALARI BAYONI

Annotatsiya

Maqola Abul-Yusr Pazdaviy "Usul ad-din" asari moturidiy ta'limotiga doir e'tiqod asoslari, ularning mazmun-mohiyati, adashgan oqimlarning talqinlari hamda ularga berilgan ilmiy raddiyalarning zamonaviy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pazdaviy, Moturidiy, Ash'ariy, ta'limot, e'tiqod asoslari, axloqiy masalalar.

**Kirish.** Abul-Yusr Pazdaviy "Usul ad-din" asarining oxirida, ilohiyot sohasiga oid, o'zi yashagan davrdagi ilmiy-ijtimoiy muhit haqida bir qancha ma'lumotlarni keltirib, jumladan shunday deydi. "Kalom ilmi o'ta chuqur ilmlardan biri hisoblanib, olimlar mazkur sohada ancha samarali mehnat qilib, juda ko'p asarlar ta'lif qilganlar. Shuningdek, kalom ilmiga oid ma'nolarni tahqiq qilib, uning asoslarini daqiq nuqtalarigacha o'rganganlar shu tufayli ularning ta'lifotlari uzayib ketgan. Albatta ularning maqsadi, "Ahli sunna val jamoa" mazhabini qo'llab quvvatlash, buning natijasida o'zlari yashagan o'lkada bid'at ahllari paydo bo'lmasligiga erishishdan iborat bo'lgan. Bu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish o'rinliki, ayrim tushunchasi past odamlar mazhab dalillarini anglab yetishda qiyinchiliklarga uchrab, bid'at va xurofotlarga voqe' bo'lib qolmasliklari uchun ham ular yozgan asarlar uzayib ketgan bo'lishi mumkin. Lekin natija ular kutgandek emas balki boshqacha tomonga o'zgarib ketdi. Ya'ni odamlar kalom ilmiga atab yozilgan uzundan uzun asrlarni o'qishdan malollanib qoldilar va bu ilmni o'rganmay qo'ya boshladilar. Men bu kitobimda kalom ilmiga oid juda ham oz ma'lumotlarni bayon qildim. Bunga sabab, yuqorida aytilganidek bizning diyorlarda istiqomat qiladigan aholining aksar qismi bu ilmidan yuz o'g'irgan. Ular ko'pincha fiqh ilmi bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Kalom ilmi bilan shug'ullanadiganlarni tan olmaydilar, bunday odamlarga nisbatan jiddiy qaramaydilar balki yengil qarab, ularni tark qiladilar. Mazkur omillar sababli bu diyorlarda ilohiyot ilmi juda kam tarqalgan.

Men bu ilmni shunchalar chuqur o'rgandimki, hech bir kishi meningdek bu ilmning tubiga yeta olmasa kerak deb o'ylayman. Bordi-yu, bu ilmda bid'atga berilib ketgan

toifalarning barchasi jam bo'lib men bilan bahs munozaraga kirishsalar ham, Allohning tavfiqi ila ularning barchasi ustidan g'alaba qozona olaman. Bundan tashqari men Abul-Hasan Ash'ariyning eng yaqin shogirdlaridan qanchadan qanchasini "takvin" va "mukavvan" masalasida mulzam qilib qo'yanman. Ularning qo'lidan faqatgina hayratlanishgina kelgan xolos"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuni ochib berishda Abul Yusr Pazdaviyning "Usul ad-din", Ibn Manzurning "Lison al-arab", U.Alimovning "IX-XI asrlarda Samarqanda kalom ilmining rivojlanishi" va Ulrix Rudolfning "al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" kitobida ilgari surilgan masalalarga tayanilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada moturidiylik ta'limoti asoslari va uning ash'ariy ta'limoti bilan farqli jihatlari hamda ularning ma'naviy-axloqiy ahamiyati va xususiyatlari tarixiy-tahlil, qiyoslash, analiz, sintez metodlari asosida ilmiy tahlil etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Pazdaviy bayon qilgan mazkur ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, XI asr oxiriga kelib, Movarounnahr hanafiylarining ilohiyot sohasidagi qarashlarida ash'ariylar bilan bo'lgan bahs munozara bosh o'ringa chiqqan va Abu Mansur Moturidiyning eng nufuzli hanafiy ilohiyotchisi sifatida esga olinishiga sabab bo'lgan. Zero, Moturidiy xotirasini Abul-Yusr Pazdaviy o'zining "Usul ad-din" asarida yodga oladi va unga qisqagina madhiya bag'ishlaydi, bunda ham ko'proq o'rinni Moturidiy hayotiga oid yutuqlarga ajratadi.

Pazdaviy o'z asarida moturidiya ta'limotini hech bir mubolag'asiz, to'laqonli tarzda aks ettira olgan deyish mumkin. Masalan u xalq (yaratish) sifati atrofida munozara, avvalo,

ash'ariylar maktabi ichida ancha bo'rttirib yuborilgan. Shuning uchun ham, ziddiyatlar hech bir zaruratsiz ta'kidlab ko'rsatilib, Imom Ash'ariy o'zining ayrim xato va kamchiliklariga qaramay, yuksak hurmatga loyiq ilohiyotchi ekani unutib qo'yilgan deydi. Ammo xalq sifati borasidagi munozaraga kelganda Pazdaviy qat'iy munosabat bildiradi. U Allohni azaliy xoliq deb bilgan va Movarounnahr ilohiyotchilarining aqidasi to'g'ri deb hisoblagan. Bu fikrni asoslashga urinib, u g'oyat qimmatli bo'lgan bir dalilni keltiradi. U yozadiki, Abu Mansur Moturidiy ham yaratish sifatining azaliyligi tarafdori bo'lgan. Qolaversa Moturidiy Abul Hasan Ash'ariydan oldinroq yashagan, umuman, u butun ta'limotni o'tmish hanafiya ilohiyotidan o'zlashtirgan, yangidan yaratgan emas.

Olmon sharqshunosi Ulrix Rudolfning islom tarixidagi ulug' allomalardan biri Abu Mansur Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti maktabiga bag'ishlangan "Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" kitobida Abul-Yusr Pazdaviyning "Usul ad-din" asarini o'rganib chiqqani va tahlil qilganini aytib o'tadi. U Rudolfning mazkur kitobida bu haqdagi mulohazalarini bayon qiluvchi quydagicha jumlar keltiriladi, "kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, bayon usuli Pazdaviyning arab tilisi fors tili ta'siri ostida bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan قلیل الغلاق arabchada aslida "qorong'ulik yo'q" degan ma'noni bildiradi. Bu yerda esa aksincha u "biroz qorong'ulik bor" ma'nosida ishlatilgan"[2]. Bu yerda Ulrix Rudolf Abul-Yusr Pazdaviyini arab tilini mukammal bilmaganlikda ayblamoqda. Buning uchun esa u "ing'iloq" so'zi arab tilida mavjud emasligini Pazdaviy uni fors tilidan o'zlashtirib olganini dalil qilib keltirmoqda. Lekin arabcha lug'at kitoblari bilan tanishadigan bo'lsak mazkur ayblovning noo'rin ekaniga ishonch hosil qilish mumkin[3].

Uning ta'kidlashicha Abul-Yusr Pazdaviyning qoldirgan guvohligi o'zining ma'no va ifodalarning ancha aniqdigi bilan diqqatga sazovor ekanligini va u o'z shaxsiy ilohiyot an'anasini yorqin anglaganligi bilan ajralib turadi. Pazdaviy o'z nazariyasini nafaqat bid'atlardan, balki o'z nomiga ega bo'lgan boshqa maktablardan ham alohida ajratishni istar edi. Bunday yondashuv o'z maqsadlariga binoan tanlangan nufuzli olimlarga ochiq va to'g'ridan to'g'ri tan berishni talab qilar edi. Shu bois Pazdaviy o'z kitobida ularning ayrim fikrlarini so'zma so'z keltirgan. Bu ayniqsa "Kitobul-olim val-mutaallim"ga nisbatan ochiq ko'rinadi. U ushbu asarni shaxsan mutolaa qilganini aytib, buni olingan qator iqtiboslar bilan tasdiqlaydi.

"Kitob al-olim val-mutaallim"ni Pazdaviy "Usul"da tilga oladi, so'ng Abu Muqotildan so'zma so'z olingan bir parcha, matndan tushib qolgan joyi bor ikkinchi parcha ham Abu Muqotil qalamiga mansub. Pazdaviy keltirgan navbatdagi ikki iqtibos oqibatida, aksincha ancha muammoli holat paydo bo'lgan: "Usul ad-din"da Abu Hanifaning "al-Fiqh al-akbar"idan iqtibos olmoqchi bo'lgan, lekin bu iqtibos ekanini tegishli matnlarning so'zma so'z o'xshashligidan emas, balki mazmunan yaqinligidan bilib olish mumkin xolos. Bu o'rinda "Kitobul-olim val-mutaallim" bilan, so'zma so'z bo'lmasada, umumiy yondoshlikni ko'rish mumkin. "Usul ad-din"da "Kitob al-olim val-mutaallim" dan yana bir iqtibos mavjud. Biroq endi bu matnda garchi tilga olingan mavzu haqida gap borsada iqtibos yetishmaydi. Ehtimol Pazdaviy manbaning ayrim o'rinlarini xotirasiga ko'ra tiklagandir. Bu tabiiy hol. Bunda u hozirda noma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxaga asoslangan bo'lishi mumkin[4].

Moturidiya ta'limotining rivojlanishida ulkan xizmat ko'rsatgan alloma Pazdaviyning ushbu asarlaridan o'rin olgan barcha masalalarning tavsifiy tahlilini keltirish orqali "Usul ad-din" asarida Moturidiya ta'limotining aks etishi haqida muayyan tushuncha va ma'lumotlar hosil qilish mumkin.

"Usul ad-din"dagi dastlabki masala kalom ilmini o'rganish va o'rgatish hamda bu borada kitob tasnif qilish haqidadir. Mazkur ishlarning joizligi borasida mu'taziliy, ash'ariy va mutakallim olimlar ittifoqdirlar. Abu Hanifa ham bu ilmni o'rgangan, bid'at ahllari bilan munozaralar olib borgan va o'z shogirdlariga bu ilmdan tahsil bergan. Abu Hanifa bu borada bir qancha asarlar yozgan bo'lib, bunga "al-Fiqhu al-akbar" va "Kitobul-olim val-mutaallim"ni misol qilib keltirish mumkin. Germaniyalik tadqiqotchi U. Rudolf "al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" asarida o'zi olib borgan tadqiqotlarga asoslanib, shu paytgacha Abu Hanifa qalamiga mansub deb ko'rilgan, hanafiylik bo'yicha muhim manba hisoblangan "Kitobul-olim val-mutaallim" asarining muallifi aslida Abu Muqotil Samarqandiy, degan xulosaga keladi[5].

Asardagi ikkinchi masala moddiy va ma'naviy narsalarning haqiqati mavjud ekanligiga bag'ishlanadi. Bunda faylasuflar bilan yuzaga kelgan munozarali holatlarga aniq va sodda misollar orqali yechim topishga harakat qilinadi. Uchinchi masala bandalarga narsalarni bilishda yordam beruvchi sabablar haqida bo'lib, bunda ahli sunna val-jamoa va falsafachilar, rofiziylar hamda imomiya firqasi vakillari o'rtasidagi bahs munozaraga guvoh bo'lish mumkin. Ahli sunna val-jamoa narsalarni bilish uch narsa, his qilish, xabar va istidloq yo'li orqali hosil bo'ladi desa, falsafachilar faqatgina his qilish bilan hosil bo'ladi deydi. Bu borada rofiziylar his qilish va ilhomga suyansa, imomiya toifasi his qilish va xabarga tayanadi.

Keyingi masala shaklga ega har qanday narsa o'z xilofi va ziddiga ega mavzusiga bag'ishlangan. Bu masala qolgan masalalarga qaraganda ancha qisqa atigi bir necha satrdan iborat bo'lsada unda ahli sunna val-jamoaning bu boradagi qarashlari aniq bayon qilib berilgan. Navbatdagi masalada sezgi a'zolari va ular nechta degan savolga javob olish mumkin. Bunda his a'zolari besh narsa: eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish va qo'l bilan ushlash sezish a'zolariga asoslanishi aytiladi. Oltinchi masala xabarlar va ularning turlari haqidadir. Alloh taolo va Rasululloh (s.a.v.)ning xabarlar haq bo'lib, yolg'on ehtimoli kuzatilmaydi. Mutavotir xabarlar ham xuddi shunday mavqega ega. Ammo ba'zi mu'tazila olimlari mutavotir xabar ham yolg'onni ehtimol qilishi mumkin deydi.

Yettinchi va sakkizinchi masalalarda "Ilm nima?", "Ilmlar turlichadir" kabi mavzularda so'z boradi. Dastlab ahli sunna val-jamoaning ilm to'g'risidagi turli xil qarashlari bayon qilinib, so'ngra mu'tazilalarning fikrlari keltiriladi. Har ikki tomonning fikrlari ko'rib chiqilgandan so'ng yakunlovchi xulosaga navbat beriladi. Mazkur tomonlarning o'zaro ixtiloflari ilmning turlari masalasida ham davom etadi. Ahli sunna val-jamoaning qarashlarida ilm uch qism: zaruriy ilm, muqtasab ilm va mutloq ilmga bo'linadi. Ikkinchi tomon esa ilm ikki xil zaruriy va muqtasab bo'ladi deydi. Navbatdagi uchta masalada "olamning ta'rifi", "moddalar haqida" va "olam yaratilgandir" kabi mavzular bayon qilinadi. Ahli sunna val-jamoa nazdida olam bu barcha yaratilgan mavjudotlarni anglatuvchi atamadir. Bu borada Abu-l-Yusr Pazdaviy Abu Shakur ochgan yo'ldan boradi. U ham olamni aksidensiyalar (sifat/araz), jismlar va atomlardan (javharlar) iborat deb biladi. Jism hosil bo'lishi uchun ikkita javhar kifoya. Boshqa tafsilotlarni Pazdaviy bizga xabar qilmaydi. Yuqoridagi masalalarda bo'lgani kabi mazkur masalada ham toifalar o'rtasidagi ixtiloflar bayon qilinadi. Bunda asosiy o'rin mu'tazila, qadariya firqalari va faylasuflarga ajratiladi. Mu'tazila toifasining ayrim vakillari masalan, Abu Bakr Asam va faylasuflar, olam jism va javhardan iborat deya arazni inkor qilsalar, qadariylar bilan bir xil fikrda bo'lgan mu'tazila toifasining boshqa bir vakili Ziror, olam faqat arazdan iborat deydi. Uning fikricha araz va jism ayni bir narsa hisoblanadi. Ahli sunna val-jamoaning nazdida araz (sifat)ning davomiyligi

muhodir. Mu'taziliylar esa araz ham xuddi javhar kabi deydilar.

Ilohiyot masalalariga bag'ishlangan navbatdagi o'n bir masalada Allohning birligi, Uning sherigi yo'qligi, Alloh hech narsaga va hech narsa Allohga o'xshamasligi, Alloh uchun jihat belgilanmasligi, Alloh eshituvchi, ko'ruvchi zot ekani, Alloh taoloning sifatleri, Allohning xohlashi va o'zining zotida qoim bo'lgan mashiat bilan iroda qiluvchi ekanligi, har bir paydo bo'luvchi jism va fe'llar Allohning xohshi bilan paydo bo'lishi, Alloh taolo kalomi ila qadim zot ekani, ijod va takvin, Alloh taoloni ko'rish, ism, tasmiya va musammo kabi mavzularda so'z boradi.

Nubuvvat masalalariga bag'ishlangan keyingi uchta masalada payg'ambarlarning yuborilishi, Odam (a.s.)ning risolatlari va ba'zi payg'ambarlarning risolatlarini inkor qiluvchilarga raddiyalar haqida ma'lumotlar taqdim qilinadi. Yigirma oltinchi masaladan o'ttiz to'rtinchi masalagacha qazo va qadarga aloqador mavzular haqida so'z boradi. Katta gunoh va osiylik mavzusiga ikkita masala ajratilgan. Iymon va islom mavzusi ostiga o'n sakkizta masala kiritilgan. Elik beshinchi masaladan yetmishinchi masalagacha xalifalik muammolari tahlil qilinadi. Nihoyat kitobning oxirgi masalasiga qadar turli xil tarqoq mavzularda so'z yuritiladi. Pazdaviy o'z asarining oxirida Ravofiza, Xavorij, Qadariya, Mo'tazila, Jabariya, Murjia va Mujassima toifalari haqida ma'lumotlar berar ekan, ularning botil ishlari haqida so'z yuritaverishning hech qanday foydasi yo'qligi, ularni bilgandan ko'ra bilmagan yaxshiroq ekani haqidagi o'z shaxsiy qarashlarini ham yashirib o'tirmaydi.

Quyida, yuqorida umumiy tavsifi berilgan masalalar ichidan o'zida Moturidiya ta'limotini aks ettirgan ayrim masalalarni batafsil bayon qilinadi. Shunday masalalardan biri Alloh olamni nima uchun yaratgan mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi.

Ahli sunna val-jamoa Alloh taolo olamni o'zi iroda qilgan narsa uchun yaratgan va uni yaratish biror bir illatning sababisiz bo'lishi mumkin deydilar. Mo'tazilalarning nazdida, olamni yaratish birorta illatning sababisiz bo'lishi, Alloh taolo hech bir ishni hikmatsiz qilishi durust emas. Ya'ni, Yaratuvchining ishlaridagi hikmat o'zgalar uchun ayni manfaat bo'lishi kerak. Shuningdek ular: U zot hakimdir, Hakim zot esa har bir ishni bir naf uchun qiladi, deydilar. Ularning barcha masalalari mazkur qoidaga asoslangan bo'lib, ular, hatto, Alloh taolo zalolatni amalga oshirishi, biror kimsaning kufrini yoxud isyonini xohlashi ham durust emas, bandalar borasida esa ular uchun eng aslah bo'lgan narsani qilishi darkor deya ta'kidlaydilar. Xulosa qilib aytganda, Alloh taolo hech kimga sababsiz va manfaatsiz tarzda azob, dard berishi joiz emas. Bolalar shuningdek hayvonot olamiga esa faqatgina kelgusida in'om etilguvchi bir manfaat yuzasidan alam yetkazishi joiz deydilar.

Ahli haqning nazdida esa Alloh taolo istaganini qilib istaganiga hukm beradi. Hech kimda Yaratuvchiga qarshi hujjatlashish, Unga egalik qilaman deyish va Allohning haqlarida cheklovlar o'rnatish huquqi mavjud emas. U hakim zot. Bizningcha Hakim zotning qilgan ishida o'zi yoki o'zga uchun biror manfaat bo'lishi shart emas. Ya'ni Hakim bu sinoati hikmatli bo'lgan zotdir. Alloh taolo bandalarini mashaqqatga solishi, jinoyat qilmagan bo'lsa ham masalan balog'atga yetmagan bolalar, aqli raso bo'lmagan kishilarni ko'pdan-ko'p qiynchiliklar bilan sinab ko'rishi mumkin. Garchi, Alloh taolo unga mazkur narsa sababidan savob bersada, lekin bunday ishlarda biror kishiga manfaat yo'q. Manfaat deb, biror ozor yetmasdan turib, ne'matga molik bo'lishga aytiladi. Dastlab ozor yetkazib keyin mukofatlash bir jihatdan zarar bo'lsa, yana bir jihatdan manfaatdir. Alloh taolo bir kishini kelajakda kofir bo'lishini bila turib yaratadi bu ish

ham zarar, bunda ham hech kimga manfaat yo'q yoki Iblisning yaratilishi uning qiyomatgacha yashashida ham hech qanday foyda yo'q aksincha zarar bor lekin Alloh taolo o'ziga ayon hikmatlar sababli shunday qilgandir.

Ahli sunna val-jamoa Alloh taoloning haqqida zulm, yolg'on va va'daga xilof qilish kabilarni mumkin bo'lmagan ishlar deb hisoblaydi. Bu Mu'tazila firqasining nazdida ham joiz bo'lmaydi. Lekin vaidga xilof qilish masalasiga kelsak, bu xilof qilish emas balki buni Allohning fazl va karami deb aytilish mumkin. Zero, Alloh taolo vaidida sodiq deb emas, balki U va'dasida sodiqdir deyiladi. Bu majoz bo'lib, kizb (yolg'on) va sidq (rostgo'ylik) o'tgan narsalarda bo'ladi.

Allohning yagona ekanligi borasidagi masalada ham, moturidiya ta'limotining aks etishini kuzatish mumkin. Moturidiy Samarqandda Moniy ta'limoti tarafdorlarining dualistik qarashlariga qarshi kalom bahslarida Allohning borligi va birligini bilishning uch yo'lga suyanadi. Bular: eng avvalo, naqlar, xabarlar undan so'ng mantiqiy mulohazalar (dalolat al-aql) va nihoyat hissiy organlar qabul qilgan taassurot, olimning o'zi aytganidek yaratilganlardan ta'sirlanishning dalolati (dalolat al-istidlol bil-xalq) kabi narsalardir. Moturidiy Allohning yagonaligini tushuntirishda naql va tafakkurning muhimligini quyidagicha isbotlaydi:

1. Naqllarda sobitki, faqat yagona Alloh vahiy orqali o'zini oshkor etgan. Boshqa iloh borligini isbot qilgan va undan xabar keltirgan birorta payg'ambar ham, biror-bir dalil-alomat ham yo'q.

2. Agar boshqa iloh bo'lganda edi, o'zining yagonaligini e'lon qilgan Allohga qarshi qo'zg'algan bo'lar edi va vahdat haqidagi vahiyning yuborilishiga to'sqinlik qilgan bo'lar edi. Bu narsaning sodir bo'lmagani Yaratuvchi faqat bitta ekanligini isbotlaydi.

3. Bizning tasavvurimizga Yaratuvchi ikkita faraz sig'maydi, chunki agar ikki iloh mavjud deb tasavvur qilinganda, biri ikkinchisining ijodini o'zlashtirishi yoki bекitishi tabiiy hol bo'lar edi.

4. Olamni ko'plab xilma-xil va bir-biriga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatuvchi narsalar tashkil etadi. Ularning uyg'un holda faoliyat ko'rsatishi yagona Xudoning irodasini ko'rsatib turadi.

5. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib shuni aytilish mumkin, olamdagi barcha jarayonlar (fasllar almashinuvi, quyosh, oy va yulduzlar harakati) yagona tartib-intizom (tadbir) asosida amalga oshadi. Bunday yagona markazlashgan tartib faqat bir rahbar yetakchiligida o'rnatilishi mumkin.

6. Moturidiy keltirgan dalillardan quyidagi ikki asosiy xulosani ajratib olish mumkin:

1. Olim "tadbir" ta'limotini, ya'ni olam ilohiy boshqaruv va oldindan o'ylab qilingan reja asosida rivojlanishi g'oyasini o'rta tashlamoqda. Allohning ishlari (af'ol) tartibli va oliy darajada maqsadga yo'naltirilgan. Demak, bu ishlarning boshida raqobatlashuvchi ilohlar emas, birgina Alloh turadi va U yagonadir.

2. Birdan ortiq iloh bo'lsa, unda ular bir-biriga qarshilik ko'rsatishi kerak (tamonu') va bu raqobat olamning yaratilishidagi ijodkorlikka to'sqinlik qilishi turgan gap edi. Demak, Alloh yagona va umumiy hukmdordir. Moturidiy ushbu mulohazalari bilan Qur'oni karim suralarida kelgan quyidagi oyatlarni sharhlaydi: (Ey Muhammad,) ayting: "Allohga hamdu-sano bo'lsin va Uning O'zi (payg'ambarlik uchun) tanlagan bandalariga duoyu-salom bo'lsin". Alloh yaxshiroqmi yoki ular (Makka mushrikleri Allohga) sherik qilayotgan butlarimi?!

Yoki osmonlar va yerni yaratgan hamda sizlar uchun osmondan suv-yomg'ir yog'dirib, uning yordamida go'zal bog'larni o'stirgan zotmi?! Sizlar uchun u (bog'larning) dov-daraxtini o'stirish imkoni yo'q edi. Alloh bilan birga yana biron

iloh bormi?! Yo'q, ular (Allohga o'zgalarni) teng biladigan qavmdirlar!

Yoki yerni (barcha jonzotlar uchun) qarorgoh qilib, uning o'rtasida daryolar paydo qilgan va uning uchun tutqitog'lar barpo qilgan hamda ikki (ya'ni sho'r-chuchuk) dengiz-daryo o'rtasida to'siq-to'g'on insho qilgan zotmi?! Alloh bilan birga yana biron iloh bormi?! Yo'q, ularning ko'plari bilmaydilar!

Yoki muztar-nochor odam duo-iltijo qilgan vaqtida (duosini) ijobat qiladigan va (uning) mushkulini oson qiladigan hamda sizlarni yerning xalifa-egalari qiladigan zotmi?! Alloh bilan birga yana biron iloh bormi?! Kamdan-kam eslatma-ibrat olursizlar!

Yoki sizlarga quruqlik va dengiz zulmatlarida to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan va O'z rahmati-yomg'iri oldidan shamollarni xushxabar qilib jo'natadigan zotmi?! Alloh bilan birga yana biron iloh bormi?! Alloh ularning shirk keltirgan narsalaridan yuksakdir![6]

Agar (osmonu zaminda) Allohdan o'zga xudolar bulganida, har ikkisi buzilib ketar edi, Bas, arsh egasi bo'lmish Alloh ular sifatlayotgan (sheriklardan) pokdir .

(Ey Muhammad), ayting: “Agar ular aytganlaridek Alloh bilan birga (boshqa) ilohlar ham bo'lsa edi, u holda o'sha (ilohlar) arsh sohibiga (ya'ni, Allohga) qarshi yo'l izlagan bo'lur edilar” .

Allohning bolasi yo'qdir va U zot bilan birga biron iloh bo'lgan emasdir. Aks holda albatta har bir iloh o'zi yaratgan

narsa bilan ketib, bir-birlaridan ustun bo'lib olur edilar, (ya'ni har bir “iloh” o'z hukmini o'tkazmoqni istab, natijada yeru osmon buzilib ketgan bo'lur edi). Alloh ular ayatoyotgan sheriklardan pokdir .

Abul-Yusr Pazdaviy mu'taziliylarning vahdat borasidagi qarashlarini o'rganib chiqib, ularni tavhidni ikki o'rinda buzganlikda ayblaydi:

1) Ular Allohdan boshqa yana bir narsa, ya'ni ma'dumning ham azaliyligini e'tirof etganlar;

2) Ularning ta'kidlashicha, Alloh faqat yaratish jarayonida Xoliqqa, mehr ko'rsatish jarayonida Rahimga aylangan va hokazo. Shu tariqa ular yagona, o'zgarmas Alloh o'zgarishlarga moyil degan fikrga yo'l qo'yadilar.

**Xulosa va takliflar.** Movarounnahr o'lkalarida yashab ijod qilgan barcha olimlar, sof islomiy e'tiqodni shakillantirish borasida o'zlarining ilmiy amaliy hissalarini qo'shib kelganlar. E'tiqod musaffoligi yo'lida amalga oshirilgan ishlarning eng samaralisi sifatida kalom ilmi borasida ta'lif etilgan asarlarni ko'rsatish mumkin.

Mavjud siyosiy vaziyatning tangligiga qaramay alloma Pazdaviy ilohiyot sohasidagi mo'tabar asari “Usul ad-din” kitobini ta'lif qiladi. Allomaning ta'biri bilan aytganda asar haqiqatda ahli sunna val-jamoaning e'tiqodiy qarashlarini to'laonli ravishda aks ettira olgan. Mazkur asar “Kitob at-tavhid”dan farqli o'laroq masalalar bayonida takrorlashlarni qabul qilmagan va ba'zi masalalar o'ta ixcham tarzda bayon qilingan.

#### ADABIYOTLAR

1. Abul-Yusr Pazdaviy. Usul ad-din. – Qohira: Dor ihyo-l-kutub-l-arabiya, 1963. – B. 223, 224.
2. Ulrix Rudolf. Al-Moturudiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. –Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi-o'zbekcha nashr huquqi, 2001. – B. 227.
3. Ibn Manzur. Lison al-arab. – Bayrut. Dor Sodir nashriyoti. 1996. 15 jild. // Odiljon Nosirov. Muhammad Yusupov. An-nayim arabcha o'zbekcha lug'at. – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 2003. – B. 594.
4. Улрих Рудолф. Ал-Мотурудий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти. Тошкент: Имом Бухорий халқаро жамғармаси-ўзбекча нашр ҳуқуқи, 2001. – Б. 48.
5. Usmonxon Alimov. IX-XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. –Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2008. – B. 11.
6. Naml surasi 59; 63-oyatlar. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – 624 b.